

QORAQALPOQ KLASSIK ADABIYOTI O'RGANISH ORQALI YOSHLAR MADANIYATINI OSHIRISH

ToshPTI "Tibbiy pedagogika va davolash" fakulteti

2-kurs 208-guruh talabasi Nomozova Gulnoza Rahim qizi

Toshkent pediatriya tibbiyot institutining 1-Pediatriya va xalq tabobati fakulteti

3-kurs 317-guruh talabasi Utebaeva Baxargul Umirbay qizi

Email: bakhargulutebaeva@gmail.com

Ilmiy rahbar: To'xtayeva Adolat

Annotation: Qoraqalpoq adabiyotining asoschisi Sharq madaniyati va adabiyotini rivojlantirishga kelajak avlodni Vatanga, xalqqa muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, turli xalqlar o'rtaida do'stlik munosabatlarini rivojlantirishga qo'shgan beبا hissa qo'shgan Berdaq ijodi, ushbu maqolada shular haqida qisqacha mulohaza yuritamiz.

Kalit so'zlar: ilim-fan, xalq og'zaki ijodi, milliy mavqe, hassos shoir, qadr-qimmat, o'lmas meros, g'urur, iftixor, porloq xotira.

Аннотация: Основоположник каракалпакской литературы Бердак, внесший неоценимый вклад в развитие восточной культуры и литературы, воспитавший подрастающее поколение в духе любви и верности Родине, народу, развития дружеских отношений между разными народами, кратко прокомментируем их в этой статье.

Ключевые слова: наука, фольклор, национальный статус, чуткий поэт, достоинство, бессмертное наследие, гордыня, гордыня, светлая память.

Аннотация: Основоположник каракалпакской литературы Бердак, внесший неоценимый вклад в развитие восточной культуры и литературы, воспитавший подрастающее поколение в духе любви и верности Родине, народу, развития дружеских отношений между разными народами, кратко прокомментируем их в этой статье.

Ключевые слова: наука, фольклор, национальный статус, чуткий поэт, достоинство, бессмертное наследие, гордыня, гордыня, светлая память.

Biz ma'rifatparvar bobolarimizning muqaddas orzularini ro'yobga chiqarish uchun mamlakatimizda yangi Renessans poydevorini yaratishni strategik vazifa qilib belgilaganmiz. Shu maqsadda ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat sohalarida tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyev¹. Qoraqalpoq diyori o'zining dunyoda o'xshashi yo'q, betakror, boy va

¹ <https://president.uz/oz/lists/view/6007>

yuksak san'ati bilan barchamizni hayratga solib kelgan. Qoraqalpoq adabiyotining o‘z yo‘nalishida so‘z borganda o‘a mustaqil fikriga ega xalq shoiri Berdaq ijodisiz tasavvur qilish ancha mushkul. Berdaq aqida so‘z ketganda XIX asrning birinchi choragida Qoraqalpoq Qo‘ng‘irot beyligiga qarashli Amudaryo Orol dengizining ovullarida dehqon oilasida tug‘ilganligini barcha adabiyot ixlosmandlari bilishadi.

Alisher Navoiy, Fuzuliy, Maxtumquli va qoraqalpoq shoiri Kunxo‘ja asarlarini chukur mutola qilgan, ulardan o‘rgangan. U tarixni va xalq og‘zaki ijodini yaxshi bilgan. Berdaqning lirik she’rlarida, dostonlarida qoraqalpoq xalqining ijtimoiy hayoti o‘z ifodasini topgan. U o‘z davri voqealariga, ijtimoiy munosabatlarga zukko shoir sifatida baho beradi. Berdaq o‘z sarlarida tenglik, insonparvarlik,adolat va vatanparvarlik g‘oyalari ilgari surilgan. Berdaq ijodida mehnatkash xalqning ahvoli asosiy mavzu sifatida tanlanib o‘zining bir qator sherlari “Bo‘lgan emas”, “Soliq”, “Bu yil”, “Umrim” kabilarda o‘z aksini topgan. Shoir haqiqat uchun, mehnatkash ommaning baxti va kelajagi uchuy fidokor kurashchilarni shoir o‘z sherlarida orzu qilgan. O‘zining sherlarida “Xalq uchun”, “Menga kerak” va boshqa mavzularda ko‘plab o‘zining bitiklarni yozib kuyga solgan. Tarixiy mavzudagi “Avlodlar”, “Omongeldi”, “Azadosbiy”, “Ernazarbiy” asarlarida shoir xalq qaxramonlarini faxr bilan kuylaydi. Qoraqalpoq klassik adabiyotida Berdoqning “Avlodlar” asari tarixiy voqealar solnomasi hisoblanib, qoraqalpoq xalqi bilan boshqa turkiy xalqlar hayotidagi mushtarak voqealar qalamga olinadi, qabila va xalqlarning kelib chiqishi haqidagi fikrlari bayon qilinadi. Ayollar huquqini himoya qiladi, yoshlarni vatanni sevishga, ma’rifat cho‘qqilarini egallashga chaqiradi o‘zining “O‘g‘limga”, “Ahmoq bo‘lma” va boshqalar sherlarida ham ko‘plab pand nasixatli tarizda muammolarni xalq tilidan xalqchil yoritgan. Men turli sinov va kurashlarda toblangan, iymon-irodasi mustahkam xalqimizning aql-zakovati va azmu shijoatiga ishonaman.² O‘zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyev Dunyoda ilm-fan taraqqiy etmagan hech bir o‘lkada erkin va farovon jamiyat qurib bo‘lmasligini hayotning o‘zi isbotlagan. Hozirgi zamonda o‘tmish va keljakni bir-biriga bog‘lovchi zanjir yoshlarning intellektual salohiyati bilan ekanligi adiblarimiz asarlarida takidlab kelingan. She’riy mushohadalari va hayotga qarashlarida Berdaq mehnatkashlarning baxtiyor yashashini orzu qildi. Xalqni baxtli qilish haqida o‘ylar ekan, Allohdan madad so‘rab quydag‘i “Yordam ber” sheri orqali, baxt haqida fikr yuritadi. “Izladim” sheri orqali esa odil podshoni orzu qiladi “Kerak” sheri bilan baxtiyor yashaydigan jamiyat qurilishiga umid qiladi. Berdaq ijodi xalq og‘zaki adabiyoti an’analariga yaqin turadi. Ijodi serqirraligi, asarlarining g‘oyaviy va badiiy yuksakligi bilan qoraqolpoq adabiyoti tarixida asosiy mavqeni egallaydi. Uning ko‘pgina asarlari o‘zbek va boshqa xalqlar tillariga tarjima qilingan.

² Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to‘qqiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagisi nutqidan. 30.08.2020-yil

Barcha shoir va allomalar kabi Berdaq ham islomning muqaddas kitobi bo'lgan Qur'oni Karimni va dunyo tarixi va adabiyotini o'rgangan. Shoiring ilmga bo'lgan mehri va chanqoqligini hozirgi zamon yosh avlodlariga o'rnatishga sifatida ko'rsatsek arziydi. Qoraqalpoq klassik adabiyotining buyk shoiri Berdaqning boy va mazmunli ijod namunalarini bizgacha yetib kelgan sherlaridan bir olam mano hamda ibrat, shukuronalik tuyg'ularini olish mumkin. Misol uchun o'sha zamonning ilim yo'lidagi mashaqqatlarini qiyinchiliklarini quydag'i misra orqali ko'rib ifodalangan

Zamon qanday zamon bo'ldi,
Qarag'ay boshin sho'rtan chaldi.
Bir nechisidan ko'nglim qoldi,
Yorug' yo'lni izlar bo'ldim³.

Bu sheriylarda shoir o'z xalqining orzu armonini ifoda etishga, o'sha davrning nohaqliklarini va ilim yo'lidagi mashaqqatlarni yoritishga harakat qilib sher orqali ifoda etgan. Berdaq o'zning sherlarini qo'shiq qilib kuylab qo'shiqlarida xalqni o'z haqini talab etishga, ozodlik harakatlariga undagan. Qoraqalpoq adabiyotida Berdaqning barcha ijod namunalarida xalqning turmush sharoiti, o'sha zamonning ijtimoiy va siyosiy hayoti haqida to'la tasavvurga ega bo'lish mumkin. Shoiring o'z asarlarida xalq boshidagi og'ir ahvol, kambag'allik, haqidagi qo'shiqlari bilan xalqqa taskin berishga harakat qilgan. Manashu qo'shig'iga aylangan she'ridan to'rt misrani misol sifatida keltirsak.

Berdaq der so'zimni aytib ketayin,
Boqgin xo'r umrin netayin.
Bo'lmasa dunyoni harob etayin,
Qani, menga Israpildin surn ber⁴.

Misralari orqali shoir o'z qalbidagilarni ifodalagan. Shoiring yashashgan zamon ziddiyatli kurashlar zamoni bo'lgan. Bu to'g'risida faqatgina qo'shiqlarda emas ijodiy faoliyatidagi barcha asarlarida ko'rish mumkin. Berdaqning hayot yo'li va ijodi haqida qancha ko'p so'zlasakda oz. Shuning uchun yoshlarimiz o'rtasida Qoraqalpoq klassik ijodkori bo'lgan shoir ijodini keng targ'ib qilish va asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish va yosh avlodga yoshlarimizga xalqimizga ommaga tanishtirish orqali zamonamizdagi yomon illatlarga qarshi vositadir. Shoiring xalqning o'tli dardiga malham bo'luvchi harorat bag'ishlash barobarida, kitobxonga hassos shoir dard-alamlaridan xabar yetkazishga qodir bo'lgan buyuk xalq kuychisidir. Buni yaxshi anglagan shoir o'z sherlaridagi kechinmalar mohiyatiga ishora qilish orqali kitobxonasi bilim olish uchun diqqatini qaratish kerak bo'lgan nutalarga alohida urg'u berib asarlar sherlar yozgan. Albatta, yuqoridagi kabi misollarni ko'plab keltirish mumkin. Ammo gap ularnin soni

³ Berdaq Saylanma she'rlari va dostonlari. Mirtemir tarjimas. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti Toshkent — 1978

⁴ Berdaq Saylanma she'rlari va dostonlari. Mirtemir tarjimas. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti Toshkent — 1978

emas, balki salmog‘ida ekanligini, umuman, Berdoq she’riyati adabiyotimiz tarixida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Binobarin, uning ibratli hayoti, sheriyatni va asarlaridagi ma’naviy merosi bugungi kunda yoshlar qalbida yuksak insoniy fazilatlarni kamol toptirishda, barkamol avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Agar biz ajdodlarimiz boy tarixiy ma’naviy merosini o’rgansak turli xil xatarlarga qarshi o‘z vaqtida qati‘yat va izchillik bilan kurash olib bormasak, turli zararli oqimlar bizning yurtimizga ham kirib kelishi mumkin. Buning uchun adiblarimiz ijodlaridan Berdoq hayoti va ijodidagi sherlari yoshlarimizni o‘zining sherlari dostonlaridagi bunyodkorlik ilimga intilish xalqga xizmat qilish g‘oyalari bilan o‘zining girdobiga tortib ketishi uchun qaraqolpoq tilidan boshqa tillarga ham tarjima qilsak ko‘p tilli xalqimiz yoshlari o‘qib o‘rganishadi. Shoир she’rlarida ota-ona, oila, el-yurt oldidagi burchi va mas‘uliyati hamda vatanparvarlik kabi g‘oyalarni ilgari suradi. Yoshlarni bugungi internet xurijidan asrash uchun Berdoq kabi xalqparvar fidoiy adiblarning asralarini sherlarni turli tillardagi badiy kitoblarni ona tilimiz bo‘lgan o‘zbek tiliga tarjima qilish kerak. Yoshlarni faqat bir kunlik hayat bilan yashaydigan xudbin kimsalarga aylanib qolishini oldini olish maqsadida adabiyot, san’at, sport bilan band qilish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Berdaq Saylanma she’rlari va dostonlari. Mirtemir tarjimasi. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti Toshkent — 1978
2. B.Qurbanboyev Berdaq va o‘zbek adabiyoti, T., 1986.
3. www. Prezidenti uz.
4. www.gazeta.uz
5. Из каракалпакской классики "БЕРДАХ".
6. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to‘qqiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan. 30.08.2020 yil.
7. Berdaq milliy madaniyatimizning buyuk namoyondasi nomli metodik o’llanma. Nukus 2017-yil.
8. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to‘qqiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan. 30.08.2020-yil.